



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

¹J.E.Usarov.,
²Sh.B.Zaxidov

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.,

²Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti Sotsiologik va psixologik tadqiqotlar markazi boshlig'i

PEDAGOGIK TA'LIM TRANSFORMATSIYALASHUVI SHAROITIDA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada tizimidagi kadrlar tayyorlashning o'ziga xosligi, sohaning xususiyatidan kelib chiqqan holda harbiy xizmatchilar tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarning faol o'zlashtirilishini ta'minlashdan iboratligi shuningdek, yangi dasturiy islohotlarning pirovard maqsadi tarkibida davlat talablari darajasida tayyorlangan va mudofaa sohasida maxsus ta'lim olgan ofitser kadrlarni tarbiyalash xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: klaster, transformatsiya, ehtiyoj, qiziqish, motiv, shaxsiy xususiyat, kasbiy, harbiy-texnik, ko'nikma, malaka, harbiy ta'lim, axloqiy-ruhiy, determinasi.

Аннотация. В статье идёт речь об уникальности подготовки кадров в системе которое заключается активного приобретения знаний, умений и навыков военнослужащими, а также конечной целью новой программы реформ, которые входит специальное обучение области обороны на уровне государственных требований. Также высказаны мысли о подготовке офицерских кадров.

Ключевые слова: кластер, трансформация, потребность, интерес, мотив, черта личности, профессиональная, военно-техническая, умение, квалификация, военное образование, морально-психологическая, детерминация.



Annotation. The peculiarity of personnel training in this system is to ensure the active use of knowledge, skills and abilities by military personnel, as well as the fact that the main goal of the program reforms is to train specially trained officers in the field of defense at the state level.

Keywords: cluster, transformation, need, interest, motive, personality trait, professional, military-technical, skill, qualification, military education, moral and psychological, determination.

Kirish. Harbiy salohiyatni ta'minlashda pedagogik ta'lim alohida o'rin tutib, bunda o'quv-jangovar tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilardan harakatchanlik talab etilishi bilan tavsiflanadi. Bu avvalambor yangi turdagi qurol-aslaha, harbiy texnikaning amaliyotda qo'llanilishi va buning oqibatida taktik me'yorlarning o'zgarishi hamda yangi harbiy mutaxassisliklarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. O'quv-jangovar tayyorgarlikning mazmun-mohiyati vaqt bilan ziddiyatga kirishadi. Chunki harbiy xizmatchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar hajmi hamda ularga jangchi sifatida qo'yiladigan jismoniy, maxsus-harbiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy-ruhiy talablar ortib boradi, ammo tayyorgarlik uchun ajratilgan vaqt o'zgarmas bo'lib qolaveradi. Ushbu ziddiyatni hal etishning istiqbolli yo'nalishi o'quv-jangovar tayyorgarlik jarayonining mohiyatini anglash, uning samarasini oshirilishi mumkin bo'lgan psixologik omillarni qo'llash, bilimlar uzatilishi va qabul qilinishi qonuniyatlarining hisobga olinishi, harbiy xizmatchi shaxsidagi yashirin ruhiy zaxiralarni ishga solinishiga turtki berish lozim. Zamonaviy harbiy harakatlar teatrda kechadigan jarayon shuni ko'rsatmoqdaki, kurash axloqiy-ruhiy darajada, harbiy texnika va qurol-aslahalarni ustunligini ko'rsatish darajasi, zamonaviy (aniq nuqtaga zarba beruvchi) raketalariga ega bo'lishni ko'rsatish ham, harbiy qudratni tarkibiy qismi sanaladi. Bu o'z navbatida, harbiy ta'lim klasteri sub'ektlarining hamkorlik faoliyatida o'z aksini topadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Cluster" tushunchasining mazmun-mohiyati, ta'limiy klasterlar va ularning klassifikatsiyasi harbiy-professionallik vektor asosida belgilanadi. "Cluster" turli tarkiblarni aniq belgilari asosida yaxlit shaklga keltirilgan majmua sanalib, oliy harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik transformasiyalashuvni samarali kechishini ta'minlashda maqbul yondashuv sanaladi. Bu tushunchani ilmiy muloqotga M.Porter kiritgan bo'lib, uning ta'biri bilan aytganda, klaster, bu aniq sohada foydalanish yuritishga mo'ljallangan, o'zaro raqobatda va hamkorlikda ish olib boruvchi, turli xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishni ta'minlovchi o'zaro aloqador bo'lgan kompaniyalarni geografik jihatdan yaxlitlashtirilganligidir [1]. Bizning fikrimizcha M.Porter asos solgan klasterli yondashuv konsepsiyasidan oliy harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik transformasiya jarayonini samarali kechishini ta'minlashda foydalanish mumkin. Buning uchun metodologik jihatdan:



- mudofaani ta'minlashga tahdid soluvchi kuchlarni (shartli raqib);
- kuchlarning tuzilishi va harbiy-texnik ta'minotini (shartli raqibning qurollanishi, harbiy-profesional tayyorgarligi);
- kuchlarni harakat strategiyasiga ega ekanligini (shartli raqibning maqsadi va harakat bosqchilari);
- qo'shimcha tahdid soluvchi kuchlarni paydo bo'lish ehtimolligini (shartli raqibning tarafdorlari va sheriklari);
- mudofaani ta'minlashga harbiy-professional tayyorgarlik darajasini (oliy harbiy ta'lim muassaslarida shartli raqib, uning kuch tuzilmasining xarakteristikasi, mudofaa va hujum taktikasi kabilarga oid bilim va ko'ikmalarni shakllantirishi) ifodalovchi etib belgilash shart sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Klasterli yondashuv, oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan predmetlar bilan, aniqrog'i o'quv dasturida ko'rsatilgan fanlarni o'zaro ta'minlovchi va o'zaro to'ldiruvchi kabi funksiyasini bajara olishiga qaratganligi bevosita harbiy didaktikaning tamoyillari asosida tavsiflanishni taqozo etadi [9]. Jang teatr maydonida kechadigan jarayon nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy va noodatiy hujum va mudofaa usullarini qo'llashni taqozo etadi[2]. Sub'ektlarni birlashtiruvchi tajriba va ilmiy ishlarni mavjudligi, o'zaro to'ldiruvchanlikka asoslanishi lozim bo'ladi. Shunda, harbiy amaliyot va ilmiy tadqiqotlar natijasini aloqadorligi ta'minlanib, harbiy faoliyatning akme darajasiga erishiladi [3]. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik ta'lim transformasiyalashuvini klaster yondashuvi asosida takomillashtirishning nazariy-metodologik maqsadi ham, mudofaani ta'minlash uchun professional harbiy kadrlarda ifodalanishi lozim bo'lgan kasbiy sifat va bilimlarni uzluksiz samaradorligini ta'minlashdan iboratdir. Bu holat o'z navbatida sekyuritologik bilimlarni (ta'lim-tarbiya jarayonida inson va uning faoliyatini xavfsizligini, jamiyat va davlat taraqqiyotini noosfera darajasida turli xavf va xatarlardan himoya qilish uchun tafakkur va ko'nikmalarni rivojlantirish[4]), ijtimoiy-gumanitar va harbiy-texnik bilimlar "inversiya"sini (aylanishi, qaytishin) ta'minlashni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, bilimlar "inversiya"si oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan predmetlar doirasida bo'lajak ofiserda harbiy-professional kompetensiyalarni tayanch komponentlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim sanaladi [11]. Oliy harbiy ta'limda pedagogik jarayonlarni transformasiyalashuvini klasterli yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Demak, harbiy bilim yurtlaridagi pedagogik jarayonlarning transformasiyasi klaster muhitini yaratish asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa, harbiy-professionallikni, harbiy-texnik tayyorgarlikni ta'minlashga axloqiy-ruhiy tayyorgarlik hamda harbiy-huquqiy tayyorgarlikni kafolatlovchi klasterlarni joriy



etishda tayanch kompetensiya bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda har bir klaster klassifikatsiyasi bo'yicha quyidagi tahlillarni keltirish mumkin:

-Oliy harbiy ta'limda pedagogik jarayonlarni rivojlanish strategiyasini belgilovchisi etakchisining mavjudligini;

-faoliyat sub'ektlarini jamlash shart-sharoitlarining mavjudligini;

-harbiy amaliyot va nazariya vakillarining integrativ aloqadorligini;

Yagona maqsad asosida klasterning barcha qatnashchilari orasida aloqadorlikni muvofiqlashtirishni hamda klaster yondashuv asosida tayyorlangan kadrlardan boshqa kuch tuzilmalarida ham foydalanishni nazarda tutadi.

Tadqiqotchilar oliy harbiy ta'limda pedagogik hamda harbiy tayyorgarlik jarayonlarining borishiga o'rgatishning psixologik-pedagogik jihatlarini o'rganib, o'rgatgan yoki yakka tartibda o'zlashtirilgan bilim va orttirilgan ko'nikmalar bevosita axloqiy-ruhiy holatga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash mumkin[5]. Axloqiy-ruhiy holat individual va jamoaviy tarzda mujassam bo'lishi, bunda OHTMda ta'lim olish jarayoni ya'ni, harbiy-pedagogik jarayon, harbiy-kasbiy kompetentlikning tayanch komponentlarini shakllantirish uchun yagona harbiy-ta'limiy maskan sanaladi [6]. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tahlil pedagogik ta'lim transformatsiyalashuvi sharoitida harbiy kadrlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi hamda sifatli ta'lim strategiyalarini tanlashga asos bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, pedagogik ta'lim transformatsiyalashuvi sharoitida harbiy kadrlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari faoliyat sub'ektlarining shart-sharoitlari, harbiy amaliyot va nazariya integratsiyasini ta'minlash darajasiga bo'g'liq. Bu bog'liqlikni ta'minlash imkoniyatlari harbiy-ma'muriy strukturalarni aniq funksiyasiga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Портер М. Конкуренция // Переводчик: Пелявский О.Л., Усенко Е.Л., Шишкина И.А. Редактор: Заболоцкий Я.В. – М.: Вильямс, 2010.

2. И.А.Алехин [и др.]. Военная педагогика // учебник для вузов - Москва: Издательство Юрайт, 2023. – 414 с.

3. Герасимов В.Н., Давыдов В.П., Деркач А.А., Лаптев Л.Г., Михайловский В.Г., Слостенин В.А., Анцупов А.Я., Темнова Л.В. Военная дидактика // – Москва: Военная академия РВСН им. Петра Великого, 2000. – 806 с.

4. Ярочкин В.И. Секьюритология. Наука о безопасности жизнедеятельности. - М.: Ось-89, 2000. - 399 с.

5. Уткин В.Е., Бурьян С.В., Набиуллин А.Ф. Педагогические пути формирования морально-боевых и военно-профессиональных качеств



военнослужащих СВ по контракту // Монография. – Казань: Отечество, 2014. - 180 с.

6. Ҳарбий хизмат ахлоқи. - Тошкент: Шарқ, 2004. – 110 б.,

7. Дудулин В.В., Е.П.Киреева Формирование профессиональной компетентности курсантов военно-инженерных вузов // Монография. – М.: ВА РВСН им. Петра Великого, 2012. – 147 с.

8. Muxamedov G.I. Mardonov Sh.Q. Kasbiy ta'limda klaster yondashuvni qo'llash mohiyati. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 319-b.

9. Muxamedov G'.I. Klaster ta'limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. 4-b.

10. Абдурахманов Р.А. и др. Военная психология, методология, теория, практика //Учебное пособие. – М.: ВУ МО РФ, 1998. – Ч. 1. – С. 149-150.

11. Axrorov S. Harbiy xizmatchilar shaxsida professionallik jarayonining shakllanish bosqichlari // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. - Toshkent, 2003. №3-4. – В.47-50.